



MAISHIY JANRDA KOMPOZITSIYA BAJARISH TEXNOLOGIYASI  
(USTOZ SHOGIRD)

Azimqulova Sevinch

Shahrisabz DPI o`quvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola maishiy janrda kompozitsiya bajarish texnologiyasi haqida umumiy ma'lumot beradi. Ustoz va shogird kompozitsiyasi orqali o`quvchilarga kompozitsiya bajarish texnologiyasini yoritib o`tadi.

**Kalit so`zlar:** maishiy janrda, asar, kompozitsiya, masla

**Аннотация:** В данной статье даны общие сведения о технологии исполнения композиции в бытовом жанре. Через композицию преподавателя и ученика он объясняет учащимся технологию композиции.

**Ключевые слова и фразы:** в бытовом жанре, произведении, композиции, рассказе

**Annotation:** This article provides general information about the technology of performing composition in the household genre. Through the composition of the teacher and the student, he explains the technology of composition to the students.

**Key words and phrases:** in the household genre, work, composition, story

O`zbek tasviriy san'atida maishiy janr XX asr 20 yillarini ikkinchi yarmidan boshlab rivojlana boshladi. 1926 yili Toshkentda AXRR (Assotsiatsiya xudojnikov revolyusionnoy Rossii)ni filiali tashkil etildi. Assotsiatsiya janrni rivojlanishida muhim rol o`ynadi. Tashkil etilgan ko`rgazmalardagi ishlar rassomlarda qoniqish hosil qilmadi. Ular hayotda bo`layotgan o`zgarishlar, mehnatkash xalqning tabiatga, erga bo`lgan munosabatini sinchiklab o`rgandilar.

Rassomlarning keksa avlod vakillaridan biri Aleksandr Volkovdir. Dastlabki ijodiy izlanishlari formalizm yo`lidan qutulib, hayotni realistik tasvir uslubiga qaytgan yillari edi. U ko`p asarlarida inson obrazini, yangi hayotni jozibali ranglarda tasvirlaydi. Uning 24-30 yillarda yaratgan «Choyxonada», «Eski shahar choyxonasi», «Anorli choyxona» shular jumlasidandir. Choyxonada choy ichish, bu inson qalbini yumshatib suhbat qurish, hayot muammolari bilan o`rtoqlashishga yaqin muloqotda bo`lish uchun muhim ma'naviy ehtiyoj makoni. U shuningdek Respublikani yangi qurilish ob'ektlarida bo`lib, «Qurilishda», «Paxta terimida», 1933-1934 yillarda «Brigada majburiyat qabul qilmoqda». «Hosil» triptix, «Sbor ekskovatora», «Chirchikstroy», «Tashselmash» asarini yaratdi. U o`z asarlarida mehnatkash inson hayoti, mehnatini, Respublikada rivojlanayotgan industriya qudratini aks ettirdi.

**Maishiy janr**- jamiyat va shaxsiy xayotdagi kundalik turmush tarzini o`zida aks ettiruvchi tasviriy san'at janri. Bu janrda rassom (xaykaltarosh) o`z zamonasidagi kundalik turmushda bo`layotgan voqea va xodisalarni, odamlarning yashash tarzi, dam olishi, mexnati va sport bilan shu yo`llanishi, xullas ularning kundalik faoliyati bu janrning



mazmunini tashkil etadi. Insonlarning maishiy xayotini aks ettirishga qiziqish qadimdan mavjud bo'lsa xam lekin uning rivojlanishi va mustaqil janr darajasiga aylanishi 17 asrdan boshlab jamiyatda sodir bo'la boshlagan demokratik tamoyillarni ortishi bilan bog'lik, Shu davrdan boshlar rassomlar ijodida oddiy xalq xayotiga bag'ishlangan asarlar Ko'paydi, mavzusi kengaydi.

Maishiy janrlardagi asarlar nafaqat hozirgikun odamlarning balki, o'tmish kishilarning turmush tarsi va hayoti haqida ham keng ma'lumot beradi. Maishiy janrda ijod qilish boshqa janrlarga nisbatan ancha murakkab bo'lib uning ishlash jarayonida insonning fikrlash qobiliyati dunyoqarashi juda katta ahamiyatga egadir. Kompazitsiya uchun 100x100 o'lchamni tanlab oldim. Kompozitsiya uchun ayni shu o'lcham munosib bo'ldi. Holsni (mato) gruntlab olinadi va impermatura, podmalyovka qilinadi. Matoni chizishga tahlash davomidagi bosqichlardan o'tilgandan so'ng uni qurishini kutamiz. Holsga kompazitsiyamizni eskizini chizib olamiz. Birinchi bosqichni grizayl usulida rang berishdan boshlaymiz. Bizga masla bo'yoqlari kerak bo'ladi, avvalo sifatli bo'yoqlar va kistlar tanlab olishimiz kerak. Kist turlari har xil bo'ladi. Maxsus mo'ybo'yoqda ishlay olish uchun qattiqroq kistlar kerak bo'ladi. Rasmni orqa foniga to'q rang berishdan boshlaymiz. Ko'zalarga issiqroq rang beramiz. Kompazitsiyamizning asosiy qahramonlari ustoz va shogirdga rang beramiz avval kiyimlaridan boshlaymiz to'q tondan och tonga qarab rang beramiz. Soya joylariga ko'proq ahamiyat qaratishimiz kerak. Eng asosiy qo'llariga rang berish ularni jonlantirishdagi asosiy nuqta. Bunda ohira, malla oq to'q saiq ranglardan foydalanamiz.



1-rasm



2-rasm



3-rasm



4-rasm



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». -T.: Sharq, 1997. 2. I.A.Karimov «Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori». -T.: O'zbekiston. 1999. 62 bet.
3. "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4306-son . 2019 yil . 3- may.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018 yil 28-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
5. BS. Abdirasulov, B. Boymetov, N. Tolipov. Tasviriy san`at. -T.; 2006
6. N. U. Abdullaev. San`at tarixi. Ikki jildlik 2/1-tom. -T.; 2001
7. Abdullayev. N..O'zbekiston manzara rangtasviri.-T.,1973 yil

**ХОРИЖИЙ ТИЛДАГИ АДАБИЁТЛАР:**

1. Б.В.Веймарн. Живопись молодых художников Узбекистана. -Т.; 1985
2. А.Эгамбердиев. Жанровая живопись Узбекистана. -Т.; 1989
3. М.Мирзарахимов. Проблемы композиции в живописи Узбекистана. Т.; 1989

**INTERNET MA`LUMOTLARI:**

1. lex.uz
2. ziyouz.com
3. wikipediya